

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
U.N.Olimov	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi	336
M.Q.Tolibboyev	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar	340
X.S.Jumanazarov	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
Sh.N.Jo'rayev	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
O.M.Normatov	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
D.G'.Mirzayev	
"Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili	361
A.O.Toirov	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
P.A.Nabiyev	
"Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)"	373
A.A.Mamadjanov	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili	378
P.A.Арслонзода	
Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни	382

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....	389
Z.J.Pardayeva	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman	393
H.Jo'rayev	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
K.A.Jamahmatov	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi	404
X.Jo'rayev, M.Ismoilova	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi	410
I.I.Rustamova	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini	413
M.A.Jo'rayeva	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti	417
M.Islomova	
Taqlid va Tasvir	421
D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov	
Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....	424
X.T.Мирзаев	
Талқини рукноҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин	428
N.Q.Bo'riyeva	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
M.Sh.Dehqonova	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
G.A.Mashrapova	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
Q.V.Yo'lchiyev	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili	449
B.N.Isakova	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati	456



UO'K: 82.0

JADID ADABIYOTIDA SAFARNOMA JANRI VA UNING TARAQQIYOTI**ЖАНР ПУТЕШЕСТВИЯ И ЕГО РАЗВИТИЕ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ****GENRE PUTESHESTVIYA I EGO RAZVITIE V SOVREMENNOY LITERATURE****Jo'rayeva Manzura Ahronqulovna** **Annotatsiya**

Maqolada safarnoma janrining taraqqiyoti uning kelib chiqishi, janr sifatidagi xususiyatlari tahlil etildi. Jadid adabiyotidagi safarnoma janri Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon asarlar asosida tahlilga tortildi.

Аннотация

В статье проанализировано развитие жанра травелога, его происхождение и характеристики как жанра. Жанр травелога в джадидской литературе анализировался на основе произведений Махмудходжи Бехбуди, Абдуллы Авлони, Мунаввара Кори, Абдурауфа Фитрата и Абдулхамида Сулеймана сына Чолпона.

Abstract

The article analyzed the development of the travelogue genre, its origin, and its characteristics as a genre. The travelogue genre in Jadid literature was analyzed based on the works of Mahmudhoja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat and Abdulhamid Sulayman son Cholpon.

Kalit so'zlar: safarnoma, sayohatnoma, janr, memuar, kundalik, xotira, muallif ruhiyati, muallif taassuroti qiyoslashlar asosidagi tahlil

Ключевые слова: травелог, травелог, жанр, мемуары, дневник, память, авторская психика, анализ авторских впечатлений на основе сравнений

Key words: travelogue, travelogue, genre, memoir, diary, memory, author's psyche, author's impression analysis based on comparisons

KIRISH

XX asr ijodkorlari badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod qilib yetuk badiiy namunalarni yaratdilar. O'zbek jadid adabiyotida safarnoma janrining shakllanishi va rivojlanishida mumtoz adabiyotining o'rnini beqiyos.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mumtoz adabiyot tarixida safar tafsilotlarining bayon qiluvchi asarlarning ildizi qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Biroq safarnoma bilan sayohatnomani farqlab olish darkor. Bizning fikrimizcha, shu paytgacha o'zbek adabiyotida bu ikkita janr sinonim sifatida qo'llangan. "Safarnomada taxayyul (xayolot) albatta katta rol o'ynaydi, ammo u mustaqil emas, balki voqeiyatga tobe' bo'ladi. Muallif safarnomada o'zidan biron jiddiy narsa qo'sha olmaydi. Shuning uchun safarnomani asosiy metodi relizm bo'lishi kerak. Ba'zi mualliflar o'rta asrlarda ba'zi narsalarni tasvirlashda realizmdan foydalanganlar, ammo ushbu amal haqiqatni yoritishida safarnoma qimmatiga salbiy ta'sir yetkazishi mumkin"[1.149-bet].

Memuar janrining yana bir shakli bu kundalikdir. Safarnoma erkin janr bo'lib, bu boshqa janrlardan tubdan farq qiladi. Safarnoma janri kundalik tarzida, maktub, xat tarzida, badiiylik jihatdan boyitilgan asar tarzida, obrazlarga boy safar tasviri holatida tasvirlanadi.

"Safarnoma. Bu adabiy janrda qalam sohibi boshqa shaharu mamlakatlarda diqqatga sazovor narsalar, hodisalar maroqli holatniki mushohada etgan va yo o'z boshidan o'tkazganligini tasvir etiladi. Ba'zi xalqlar adabiyotshunosligida safarnoma "safar ocherki" deb nomlangan. Fors-tojik adabiyotida ushbu janr qadimiy tarixga ega bo'lganligi bois, safarnoma termini ishlatilgan. Safarnoma janrida ushbu xususiyatlarni kuzatish mumkin: Safarnomadagi predmet tasvirini muallif tomonidan bevosita kuzatgan, mushohada etilgan va yo o'z boshidan o'tkazgan.

Safarnomadagi makon tasvirini begona shahar, rayon, mamlakatlar tashkil etadi. Bu makonlar do'st va dushman makonlari bo'lishi mumkin. Safarnomada voqelikda bo'lmagan narsa tasvir etilmaydi. Safarnomada faktu raqamlar va hujjatu dalillar aniq ko'rsatiladi. Ya'ni safarnomada voqea hajmi, hududini o'zgartirishga muallifni haqqi yo'q. Safarnomada voqea asosiy mavqega ega emas, yagona syujet va ziddiyat ushbu janrga xos emas. To'liq badiiy obraz va xarakter yaratish safarnoma muallifini maqsad emas. Muallif ba'zi odamlarga e'tiborli bo'lib, ularni asosiy jihatlarini, xulqu atvorini amalda ko'rsatadi. Safarnomalarda asosan bir nafar-muallifni xakteri ko'proq namoyon bo'ladi. Safarnomada voqea asarni yaxlitligini ta'minlanmaydi. Asarni yaxlitligi ushbu safar boshidan oxirigacha bo'ladi. Asarni yaxlitligi muallifni maqsadiga bog'liq. U bir joydan boshqa joyga boradi va qaytadi. Safarni tugatishi – asarni tugatishini ifodalaydi. Muallif safarnomada o'zidan biron jiddiy narsa qo'sha olmaydi. Shuning uchun safarnomani asosiy metodi relizm bo'lishi kerak. Ba'zi mualliflar o'rta asrlarda ba'zi narsalarni tasvirlashda realizmdan foydalanganlar, ammo ushbu amal haqiqatni yoritishida safarnoma qimmatiga salbiy ta'sir yetkazishi mumkin. Safarnomalarni qimmatini shunda zohir bo'ladiki, o'quvchilarni boshqa xalqlarni turmush tarzi, obodonchiligi, urf-odat, adabiyot va san'at, iqtisodiy-siyosiy hayoti bilan tanishtiradi. Har bir safarnoma zamon talabi va muallifning dunyoqarashiyu estetik didiga muvofiq bir markazlashtirilgan maqsadga qaratilgan. Bir yozuvchi ajoyibu g'aroyib narsaga e'tibor berilsa, boshqasi maktabu maorifga, umuman madaniyatga, uchinchisi ijtimoiy tizim va uni muvofiqligi xalqning hayotiga va hokazolar".

NATIJA VA MUHOKAMA

Jadid adabiyoti mumtoz adabiy an'analarni yangilashga jiddiy kirishishi barobarida mumtoz adabiyotdagi sayohatnoma, safarnoma yo'nalishidagi asarlarning ham yangilanishiga milliy zamin yaratdi. Bu jihatdan Markaziy Osiyodagi jadid adabiyotining karvon boshilaridan biri Ahmad Donish adabiy faoliyati va ijodi e'tiborlidir.

Ahmad Donishning falsafiy dunyoqarashini aniqlash jihatidan "Navodirul vaqoye" ("Nodir voqealar") asari muhim ahamiyatga egadir. XIX asrning o'rtalarida yashab ijod etgan mutafakkir Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanafi as-Sidiqiy al-Buxoriy Buxoro amirligida yashab ijod etgan. 1857, 1869 va 1874-yillarda Ahmad Donish Buxoro elchilari tarkibida Peterburgda bo'lib, madaniyati, ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan tanishadi va o'z taassurotlari ta'sirida asarlar yaratadi.

Behbudiy "Qasdi safar" asarida safar tafsilotlari berilgan. Memuar janrining yana bir shakli bu safarnomadir. Safarnoma erkin janr bo'lib, bu boshqa janrlardan tubdan farq qiladi. "Qasdi safar" asari sayohat xotiralari tarzida qabul qilinsa-da, bu safarnoma adibning boshqa publitsistik asarlaridan farq qiladi. Chunki Mahmudxo'ja Behbudiy safarga chiqqan kundan boshlab, kundalik tarzida ko'rgan voqealari, tabiat tasviri, xalqlar va millatlar taqdiri haqida bayon qiladi. Safarnomani boshida safarga chiqishni istagani, lekin bir muncha sabablar tufayli oila va ishdan uzula olmagan haqida, "Oyina" jurnali qismatidan xavotiri borligi haqida shunday deydi: "Bir sanadan beri idora ishiga oshno bo'lgan Sayyid Rizo afandi Alizoda janoblarning "Oyina"ga mas'ul mudirligi uchun hukumatdan ruxsat olindi. Muvaqqat muharrirligi muallim Hoji Muin janoblari'ga havola qilindi. Kitobat va tartibig'a Mullo Faxriddin Rojij janoblari mutasaddidur. Oллоh taoloning inoyati va qorilarning tavajjuhlari ila kamina bo'lmasa-da, "Oyina" eskicha chiqib turar va sayohatimizdan muxtasar suratda har hafta yozib turamiz"[2. 72-bet].

1914-yil 29-may kuni Samarqanddan poyezdga o'tirganidan tortib, oilasi bilan xayrlashuv onlarini ham kundalik shaklidagi safarnomaga yozadi. Qalbidagi tug'yonini, ayriqlik azobi muallifni qiynaydi. Bu qiynoqqa na kitob o'qish, na xayol surish taskin beradi. Uning qalbiga Qur'oni karim taskin berishini ham ta'kidlaydi.

Behbudiy kunda ko'rgan voqealarni yozish bilan birga har bir joy tarixiga oid qiziq ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Buxoroga kelib yashayotgan muhojirlar va amaldorlar haqida ham ma'lumotlar berish orqali o'z fikrlarini aytib o'tadi. U islom dini va Qur'oni karimni yaxshi bilgan. Shuning uchun muhojirlarni mazhablarini bema'lol ajratib olgan. Marv tomonni istilo etgan buxoriylarni sardori sarig' va ko'k ko'zli bir kishi ekanligi orqali real hayotdagi va tarixdagi insonlar portretlarini ham chizib beradi. Biroq safarnoma janri kompozitsiyasi boshqa janrlardan farq qiladi. To'liq badiiy obraz va xarakter yaratish safarnoma muallifini maqsad emas. Muallif ba'zi odamlarga e'tiborli bo'lib, ularni asosiy jihatlarini, xulqu atvorini amalda ko'rsatadi. Safarnomalarda

ADABIYOTSHUNOSLIK

asosan bir nafar-muallifni xarakteri ko'proq namoyon bo'ladi. Adib safarnoma janrida bir qancha she'riy san'atlar va tasvir vositalaridan foydalanadi.

Behbudiyning safarga chiqishdan asosiy maqsadi safarning shu asosiy, ikkinchi qismini bezagan mamlakatlar va xalqlar hayoti bilan tanishish, ular hayotidagi ibratli tomonlarni o'rganish, rus istilosi yillarida aloqa rishtalari uzilgan Sharq va G'arb mamlakatlarida ro'y bergan madaniyat yangiliklari bilan oshno bo'lish, turk, fors, arab tillarida nashr etilgan kitoblarni sotib olish, o'zining safarnoma parchalarini "Oyina" jurnalida e'lon qilish yo'li bilan vatandoshlarining ham dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish edi.

Behbudiy safar davomida Bayrut, Yofa, Quddusi sharif, Xalil ar-Rahmon, Baytullahm singari shaharlardagi diqqatga sazovor joylarni borib ko'radi. Shu narsa g'aroyibki, u bu shaharlarning birida teatr va sinematograf bor bo'lgani holda unga kirmaydi.

Adib safarda ko'rgan va eshitgan voqealarini kundalik tarzida yozib borar ekan, har voqeaga, ko'rganlariga, tabiat tasviriga o'z munosabatini bildiradi. Vatani, xalqi sharoiti bilan qiyoslaydi. Xalqlarning o'rtasidagi urf-odatlarini, ma'nisiz orzu havaslar haqida gapirib, xalqni ilm olishi, ilmga intilishi kerakligini ta'kidlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy maorif tizimining islohotini umummamlakat, umummillat muammosi deb bilgan. Millatni millat sifatida tugashdan, jamiyatni falokatdan faqatgina maktab, ilm-ma'rifat islohotigina asrab qolishi mumkinligini keng ziyolilar ommasiga anglatishga intilib, tinmay kurash olib borgan.

Abdurauf Fitratning "Hind sayyohi" asari "Hind sayyohining qissasi", "Hind sayyohi bayonoti" nomlari bilan mashhur. Asarda jadidchilarning ijtimoiy hayoti, uning qator sohalarga munosabati, tijorat masalalariga yondashish tizimlari, mavjud madrasalarda o'qitish va ta'limning yangi usullariga alohida e'tibor qaratilgan.

Jadid adabiyotidaga jadid namoyandalari safarni aniq maqsad asosida amalga oshirgan. Olim Anqaboy Quljonov "Bayonoti sayyohi hindi" asari 1912-yilda Istanbulda chop etiladi. Bu asar bir qarashda va voqealarning bayon etilishi jihatidan o'ziga xos safar ocherklari shaklida yozilgandek ko'rinadi" deb ta'rif beradi. Olim asarga safar ocherki deb ta'rif beradi. Lekin asarni ocherk deb emas, balki safarnoma deyish to'g'ridir. "Hind sayyohi" asari qahramoni sayyoh obrazi bilan mashhur. U Buxoroga sayr etish uchun emas, balki safarga keladi.

XIX asr so'nggi choragi va XX asr boshlarida Komil Xorazmiy, Ahmad Donish, Furqat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori kabi shoir va adiblar badiiy publitsistik xarakterdagi safarnomalarning dastlabki namunalarini yaratgan bo'lsalar, 1920-yillarga kelib Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon ijodida bu yo'nalish imkoniyatlari biroz kengaygan holda o'ziga xos o'rin egallab, mazmun va kompozitsion jihatdan takomiliga yetdi.

Jumladan, Cho'lpon ijodiga nazar soladigan bo'lsak, uning she'riyat va nasr bilan bir qatorda badiiy publitsistikada ham jiddiy qalam tebratganiga guvoh bo'lamiz. Bunga misol tariqasida uning "O'sh", "Qaytish yo'q", "Yo'l esdaligi", "Arslonbob yo'lidan", "Vayronalar orasidan: Andijon-O'sh-Jalolobod", "Chimkent xatlari", "Shahardan qishloqqa", "Osmonda, yerda" kabi yo'l esdaligi va safarnoma tipidagi asarlarni keltirishimiz mumkin.

XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega ijodkor Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondir. Jadid adabiyotida o'z o'rnini o'z uslubiga ega bo'lgan ijodkor barcha janrlarda ijod qilgan. She'rlar, hikoyalar, romanlar yozgan ijodkor safarnoma janrida ham asarlar yozgan. "Yo'l ocherklari" hamda "Vayronalar orasida" asarlari safarnoma janrida yozilgan. Safarnoma janrining asosiy tamoyillariga maqsadning aniqligi, makon va zamon, ijodkor g'oyasining badiiy funksiyasi kiradi. Safarnomaning strukturasi ijodkor uslubiga bog'liq. Safarnoma erkin qurilishga ega bo'lgan janr, shuning uchun bu janrda ijodkor asar strukturasi ma'lum qolipga solishi shart emas.

Adabiyotshunos olim Dilmurod Qur'onov "Satrlar orasida yurt tashvishi" nomli maqolasida shunday fikr yuritadi: "Ma'rifatchilik adabiyotida - xoh XVIII asr Yevropa adabiyotini va xoh Rusiya ma'rifatchilarini olib ko'ring - safarnomalar ancha keng o'rin tutadi. Tabiiyki, o'zbek ma'rifatchilik adabiyoti ham istisno emas: Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Fitrat ijodiy meroslarida bu janrning turli ko'rinishlariga duch kelishimiz ham shunga dalolat qiladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yo'l ocherklari - safarnomalarning milliy adabiyotlarda keng tarqalishi konkret millat ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar yetilayotgan paytlarga to'g'ri kelar ekan. Zero, realistik safarnoma mavjud hayotdagi faktlarga o'quvchini diqqatini jalb etib, ular asosida mushohada yuritishga undaydi; bu xilda yashab bo'lmasligiga ishonitirishu jamiyatning isloh qilish zaruratini anglatishga keng

imkoniyatlar beradi. Ma'rifatchilik g'oyalari ta'sirida adabiyotga kirib kelgan Cho'lpon janrning mazkur imkoniyatlaridan birmuncha o'zgargan sharoitda ham mohirona foydalana bilgan edi".

Ko'rinadiki, olim Cho'lponing "Vayronalar orasida" asari haqida safar janrida yozilgan asar ekanligini ta'kidadi. O'zbek adabiyotida safarnoma janri alohida janr sifatida tadqiq etilmagan. Sayohatnomalar, yo'l esdaliklari, yo'l ocherklari tarzida berilgan. Lekin jadid adabiyoti namoyandalari tomonidan yozilgan bu kabi asarlar safarnoma janriga to'liq javob beradi. Makon va zamon aniq bo'ladi va inson maqsad bilan safarga chiqadi.

"Vayronalar orasida"ning kompozitsion qurilishi, bir tomondan, safarnoma janri talabi bilan, ikkinchi tomondan, undagi tahliliy qatlamning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Safarnoma janri talabidan kelib chiqqan holda makon va zamon o'zgarishlarining qat'iy tartibi saqlangan. Biroq bu yo'llardan ilgari ham ko'p bor yurgan sayyoh mushohadasi hozirgi mavjud faktlar bilangina qanoatlanmaydi: u o'zi bilan o'tmishga bot-bot qaytadi, chog'ishtirishga intiladi. (Adib safar bilan birga xotiraga yuzlanadi. Demak, safarnoma janrida yozilgan asarlarda xotira belgilari va xususiyatlari ham uchraydi. Ta'kid bizniki.M.J.). Yurt qayg'usida yashayotgan adib tafakkuri vaqt chegaralarini buzib yuboradi. Muallif biron faktni keltirar ekan albatta uning o'tmishini eslaydi, muqoyasa qiladi, uning o'ylari qatida esa doimo kelajak tashvishi botin bo'ladi. (Kelajakka umid, ishonch)

Safar janrining ko'rinishi va shakllari turlicha bo'ladi. Badiiylikka yo'g'rilgan safar, publitsistik yo'nalishda yozilgan safar, kundalikka yozib borilgan safar, xotiraga yozib borilgan safar, xatlar asosida yozilgan safar, shakli ko'rinishi har xil, lekin maqsad, vazifa bir xil. Cho'lponing "Vayronalar orasida" asari aniq faktlarga asoslangan va o'tmish xotiralari bilan qiyoslab yozilgan safarnomadir. Asar Andijon-O'sh-Jalolobod safari taassurotlari asosida yuzaga kelgan. Muallifning uyqudan uyg'otilib, aravaga chiqishi, onasini chiroq ko'tarib, ancha yergacha kuzatib qo'yishi, muallifning onasi haqidagi iliq fikrlari safarnomaning kirish qismi hisoblanadi. Kuzatuvlarimiz shuni anglatadiki, safarnoma janrida albatta kirish qismi bo'ladi. Demak safarnomada kirish qism berilishi janrning muhim xususiyatidir. Kirish qismidan so'ng muallif o'z kuzatishlarini bayon qiladi. Muallif taassurotlarini esa asarning xotima qismida bayon qiladi.

Cho'lpon bir qancha qishloqlarni ko'rganligi, ulardagi maktablarga alohida e'tibor berishi, xalqning ilmsizligidan kuyinib yozishi safarnomaning birinchi maqsadiga chiqadi. O'sh atrofida yashaguvchi qirg'iz xalqining maktab va ilmga intilishi, xalq o'z harakati bilan maktab ochganligini, xalq o'zi pul to'plab, maktabning 6 oylik ta'minotini tashkillaganiga alohida urg'u beradi. O'zganda ham maktab ochilganligi, lekin O'sh shahridagi tayyor maktab qarovsiz holga kelganligi haqida kuyinib yozadi. Muallif asosan O'sh shahrida xotin-qizlar ilmsizligi, ta'lim va tarbiya masalasi, gullayotgan va qarovsiz qolgan maktablar taqdiriga, O'shdagi birgina kinoteatrni Jalolobodga ko'chirilganiga ham o'z e'tiborini qaratadi

Cho'lponni maqsadi aniq bo'lgan. Sayohatga chiqqan sayyoh bu jihatlarga e'tibor bermaydi. Lekin safarga maxsus topshiriq bilan chiqqan sayyoh safarni ikir-chikirlarigacha bayon qiladi. Bu esa safar janrining muhim xususiyatidir. Ijtimoiy hayot, urf-odatlar, e'tiqodlar va qadriyatlar, geografik tavsif, yo'l xotiralari sifatida ham ahamiyatlidir. Muallifning shaxsiy kuzatishlari, kechinmalari birinchi o'ringa chiqadi va asarning ma'lum ma'noda badiiyligini ta'minlaydi.

XULOSA

Tasvir va tavsif etilgan yerlar, shahar va qishloqlar, xalqlar o'tmishi, nihoyatda xilma-xil ma'lumotlarning ko'pligi, geografiya, etnografiya, madaniyat, iqtisodiyot, toponimika, antropologiya, bayonning soddaligi, haqqoniyligi va hujjatlarga asoslanganligi jihatidan Cho'lponing "Vayronalar orasida" asari o'zbek adabiyotida safarnoma janrining namunasi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Раҳими Муслумониён. Назарияи адабиёт. Душанбе. "Маориф" 1990 йил, 150-бет
2. Қуронон Д. "Йул эсдалиги"да тағмаъно қатламига доир // Шарқ юлдузи. 1998. № 1. Б. 159
3. Қуронон Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Т.: "Шарқ" нашриёти матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2004. Б. 50-51.
4. М.Бехбудий . Танланган асарлар. Тошкент. 2 жилдлик. 2021 йил.